

## YOZYOVON TUMANI GEOGRAFIK O'RNINI VA IQTISODIY KO'RSATGICHLARI

**Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Jabborov Xudoyberdi Gapar o'g'li**

*Andijon Davlat pedagogika Instituti talabasi*

**Eshimova Feruzaxon Dilmurodjon qizi**

*Andijon Davlat pedagogika Instituti talabasi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqolada Farg'ona viloyati Yozyovon tumani va uning geografik kelib chiqishi, tumanning o'ziga xos bo'lgan tabiatini, viloyatda o'z o'rniga ega bo'lan sanoati va iqtisodiyoti haqida batafsil tushunchalar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *yozyovon tumani, xo'jaligi, statistik ko'rsatkichlar, sanoat, iqtisodiyot, geografik xususiyatlar, o'sish surati, faoliyat, maydon.*

## ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ЁЗЁВОНСКОГО РАЙОНА ИНДИКАТОРЫ

**Аннотация:** *В данной статье представлена подробная информация о Езёвонском районе Ферганской области и его географическом происхождении, уникальной природе района, промышленности и экономике, занимающей свое место в регионе.*

**Ключевые слова:** *Ежявонский район, экономика, статистические показатели, промышленность, экономика, географические особенности, картина роста, деятельность, территория.*

## GEOGRAPHICAL AND ECONOMIC POSITION OF THE YOZEVON DISTRICT INDICATORS

**Abstract:** *This article provides detailed information about the Yozyovon district of Fergana region and its geographical origin, the unique nature of the district, the industry and economy that has its place in the region.*

**Key words:** *Yozhyavon district, economy, statistical indicators, industry, economy, geographical features, growth picture, activity, area.*

**Kirish:** Yozyovon tumani — Farg'ona viloyatidagi tuman. 1952-yil 16-aprelda tashkil etilgan (1959-yil 14-dekabrda Toshloq tumani bilan birlashtirilib Oxunboboyev nomi berilgan, 1962-yil 24-dekabrda Oxunboboyev tumaniga Marg'ilon tumani ham qo'shilgan. 1980-yil 27-dekabrda Yozyovon tumani qayta tuzildi). Yozyovon tumani viloyatning Toshloq, Oxunboboyev, Oltiariq, Buvayda tumanlari, Namangan viloyatining Pop tumani, Andijon viloyatining Ulug'nor, Bo'z tumanlari bilan chegaradosh. Maydon 0,41 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 71,6 ming kishi (2000). Yozyovon tumanida 1 shaharcha (Yozyovon), 10 qishloq fuqarolari yig'ini (Guliston, Yozyovon, Ishtirxon, Xonobod, Cho'liguliston, Yangibo'ston,

Yangiobod, Qatortol, Qorasoqol, Qoratepa) bor. Markazi — Yozyovon shaharchasi. Aholisi, asosan o‘zbeklar, shuningdek, qirg‘iz, tojik, rus, tatar, qoraqalpoq va boshqa millat vakillari ham yashaydi.



**1-rasm. Yozyovon tuman hududining sputnikdan ko‘rinishi.**

Asosiy qism. Yozyovon tumani Farg‘ona vodiysining markazida, Yozyovon cho‘lida joylashgan. Relyefi asosan tekislik bo‘lib, shim.ga tomon qiya. Yer yuzasi gil, qumoq, qumloq va qumdan iborat. Shim.g‘arbiy qismida barxanlar — do‘ng qum, marza qum shakllari uchraydi. Qumli cho‘lning bir qismini saqlab qolish maqsadida 1991-yilda „Yozyovon cho‘li“ tabiat yodgorligi (mayd. 1842 ga) tashkil etilgan. Iklimi keskin kontinental, yozi issiq, qishi sovuq. Yog‘inning ko‘p qismi bahor va qishda yog‘adi. Iyulning o‘rtacha tempaturasi  $27^{\circ}$ , yanvar niki —  $2,2^{\circ}$ . Vegetatsiya davri 218 kun. Yiliga 120-130 mm yog‘in tushadi. Farg‘ona (Xo‘jand) darvozasi orqali vodiy ichkarisiga esuvchi kuchli „Qo‘qon shamoli“ ekinlarga katta zarar keltiradi. Qishda teztez tuman tushadi. Yozyovon tumanidan Katta Andijon kanali va Yozyovon soyi oqib o‘tadi. Suv inshootlari, artezian va drenaj quduqlari yordamida yer osti suvlaridan foydalaniladi. Tuproqlari asosan sugoriladigan o‘tloq, qisman qumli va qumli o‘tloq tuprokdar hamda sho‘rxoklardan iborat. Vohalarda madaniy ekinlar, mevali va manzarali daraxtlar, butalar, begona o‘tlar, qumliklarda qora saksovul va oq saksovul, qandim, cherkez, yulg‘un o‘sadi. Xilmaxil qushlar, turli kaltakesaqlar, tulki, bo‘ri, chiyabo‘ri yashaydi. „Qizil kitob“ga kiritilgan qizil astragal, farg‘ona chipor kaltakesagi, shtraux qurbaqaboshi, echkemar uchraydi.

**1-jadval**  
**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili**

	<i>2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm</i>		
	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	<i>Farg'ona viloyati</i>	<i>Yozyovon tumani</i>
<b>Sanoat</b>	551 050,9	30 390,5	162,8
o'sish sur'ati, %da	105,2	104,8	110,4
<b>Iste'mol tovarlari</b>	197 892,7	11 776,5	70,7
o'sish sur'ati, %da	119,4	100,6	108,1
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	364 522,8	33 395,3	1068,4
o'sish sur'ati, %da	103,6	103,6	102,5
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	266 021,7	15 396,7	287,0
o'sish sur'ati, %da	99,5	112,3	118,8
<b>Qurilish ishlari</b>	130 767,1	8 558,1	172,4
o'sish sur'ati, %da	106,6	112,7	93,9
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	319 288,2	26 021,2	295,8
o'sish sur'ati, %da	112,3	110,7	101,4
<b>Jami xizmatlar</b>	357 554,5	21 960,3	329,4
o'sish sur'ati, %da	115,9	114,5	106,9
<b>Eksport, mln. AQSh dollari</b>	19 309,1	827,2	3,8
o'sish sur'ati, %da	115,9	103,2	113,7
<b>Import, mln. AQSh dollari</b>	30 699,3	1 234,3	0,6
o'sish sur'ati, %da	120,4	119,3	47,3

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

Korxonalar va tashkilotlar yagona registr ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 1408 tani tashkil qilib, shundan 1072 tasi yoki 76,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda.

Yil boshidan jami 199 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 34 ta korxonalar va tashkilotlar tugatilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 455 ta (32,3 %), sanoat 295 ta (21,0 %), boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish 289 ta (20,5 %), qurilish 132 ta (9,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 119 ta (8,5 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 58 ta (4,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylaridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha Yozyovon tumanining viloyatda tutgan o'rni. 2-jadval**



Faoliyat ko'rsatayotgan (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 1072 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 71 taga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 31,9 % savdo, 20,0 % sanoat, 9,3 % qurilish, 3,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 2,0 % tashish va saqlash, 0,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Yozyovon tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar tomonidan 162,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 100,0 %i kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,9 %ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 %ni tashkil etdi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan. Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylarida jami xizmatlar hajmi 329,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 %ga to'g'ri keldi.

Yozyovon tumani bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (106,3 %), moliyaviy xizmatlar (134,6 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (105,1 %) turlarida qayd etildi. Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (97,2 %) va transport xizmatlari (101,8 %) turlarida qayd etildi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, (ming so'm). 2023- yil yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1377,3 ming so'mni va sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,0 %ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 597,9 ming so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 %ni tashkil etdi.

Xulosa: Yozyovon tumani Farg'ona viloyatini nisbatan noqulay hududida joylashgani uchun odamlar dexqonchilik qilishlari ozgina mushkul. Yozyovon hududini ko'p qismi chollardan iborat, yozyovon, markaziy fargona cho'llari joylashgan. Chegaradosh viloyatlar Namangan Andijon chegaradosh tumanlari Toshloq, Qo'shtepa, Oltiariq, Buvayda, Ulug'nor, Bo'ston, va Pop tumanlari orasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bunday qulay geografik joylashuvi tumanga, Import va Eksport xajmini anchagina oshirishga yordam beradi. Farg'ona viloyatini umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida Yozyovon alohida ajralib turadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов центральной ферганской пустыни. "Экономика и социум" №7(98) 2022.-378 б.
2. Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li, & Xatamova Durdoni Xatamjon qizi. (2023). Markaziy osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanishning transchegaraviy masalalari. Golden brain, 1(2), 274–279.
3. Yozyavon tumanining statistik axborotnomasi. 2023 - yil ma'lumotlari.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Ёзёвон тумани ҳокими ва ўринбосарлари ҳақида маълумот.